



GEOGRAPHICAL LOCATION OF THE BUKHARA KHANATE IN THE 16TH-18TH CENTURIES AND ITS STRATEGIC IMPORTANCE

Kamola Shernazarova

Master's student, Lecturer

University of Business and Science

Yangikhayot District, school No. 331

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Bukharan Khanate, geographical location, strategic importance, military strategy, Central Asia, diplomacy, ethno cultural diversity, Silk Road, multinational, religious pluralism, trade routes.

Received: 16.02.25

Accepted: 18.02.25

Published: 20.02.25

Abstract: This article examines the geographical location of the Bukharan Khanate in the 16th-18th centuries and its strategic significance. The Bukharan Khanate was located in the center of Central Asia, at the intersection of trade routes, which had a significant impact on economic and cultural development. The article analyzes the role of the city of Bukhara as a center of trade and culture, as well as its importance in terms of military strategy and aspects that should be taken into account for diplomatic relations. This study illuminates the historical significance of the Bukharan Khanate and its place in the history of Central Asia.

XVI-XVIII ASRLARDA BUXORO XONLIGINING GEOGRAFIK JOYLASUVI VA UNING STRATEGIK AHAMIYATI

Kamola Shernazarova

Magistratura talabasi, O'qituvchi

"University of Business and Science" universiteti

Yangikhayot tumani, 331-maktab

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Buxoro xonligi, geografik joylashuv, strategik ahamiyat, harbiy strategiya, O'rta Osiyo, diplomatiya, etno madaniy xilma-xillik, Ipak yo'lli, ko'p millatli, diniy plyuralizm, savdo yo'llari.

Annotatsiya: Ushbu maqlolada XVI-XVIII asrlarda Buxoro xonligining geografik joylashovi va uning strategik ahamiyatini o'rganib chiqamiz. Buxoro xonligi O'rta Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, savdo yo'llarining kesishgan nuqtasida ekanligi sababli iqtisodiy va madaniy rivojlanishga

katta ta'sir ko'rsatgan. Maqolada Buxoro shahrining savdo va madaniyat markazi sifatidagi roli, shuningdek, harbiy strategiya va diplomatik aloqalar uchun e'tiborga olish lozim bo'lgan jihatlar nuqtai nazaridan muhimligi tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot Buxoro xonligining tarixiy ahamiyatini va uning O'rta Osiyo tarixidagi o'rnini tahlil qiladi.

ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ БУХАРСКОГО ХАНСТВА В XVI-XVIII ВЕКАХ И ЕГО СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Камола Шерназарова

Магистрант, преподаватель

Университет "University of Business and Science"

Янгихаётский район, школа № 331

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бухарское ханство, географическое положение, стратегическое значение, военная стратегия, Средняя Азия, дипломатия, этнокультурное разнообразие, Шелковый путь, многонациональность, религиозный плюрализм, торговые пути.

Аннотация: В данной статье рассматривается географическое положение Бухарского ханства в XVI-XVIII веках и его стратегическое значение. Бухарское ханство было расположено в центре Средней Азии и оказало большое влияние на экономическое и культурное развитие, так как находилось на пересечении торговых путей. В статье анализируется роль города Бухары как торгово-культурного центра, а также его значимость с точки зрения военной стратегии и аспектов, которые необходимо учитывать для дипломатических отношений. Данное исследование освещает историческое значение Бухарского ханства и его место в истории Средней Азии.

Kirish. Ushbu maqolada Buxoro xonligining geografik joylashuvi va uning strategik ahamiyatini tahlil qilib, bu davrning tarixiy voqealaridagi o'rnini yoritishga harakat qilamiz. Buxoro xonligining rivojlanishi va o'zaro aloqalarini tushunish, nafaqat O'rta Osiyo tarixi, balki butun Islom tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqealarni anglashimizga yordam beradi. Shuningdek, soha tadqiqotchilari uchun muhim ma'lumotlarni berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Bu mavzuda bir qator tarixchilar, ilmiy tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borgan. Zamonaviy tadqiqot ishlarining aksariyati ushbu davrdagi ijtimoiy-siyosiy voqelikni turli jihatlariga va ularni o'rganishga bag'ishlangan. O'zbekistonlik olimlardan A.Ahmedov[1], M.Ismoilov[2], R.Sultonov[3], A.Beruni[4], M.Qodirov[5], S.Rahmonov[6] kabilar, g'arb

olimlaridan V.Bartold[7], C. Bosworth[8], P. Golden[9], A. Xunshe[10], A. Kolesnikov[11] kabilarni ta'kidlab o'tish mumkin. Ushbu olimlarning ilmiy ishlari va mavzuga oid adabiyotlari Buxoro xonligining XVI-XVIII asrlardagi diplomatik aloqalarini tahlil qilishda muhim manbalardan hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimlashtirish, nazariy-deduktiv fikrlash, analiz va sintez, tarixiy-mantiqiy, siyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

XVI-XVIII asrlar Buxoro xonligi tarixi uchun muhim davr bo'lib, bu davrda Buxoro nafaqat O'rta Osiyo, balki butun Islom olamida o'zining strategik ahamiyati bilan ajralib turgan. Geografik joylashuvi jihatidan Buxoro xonligi, Sharq va G'arb, Shimol va Janub o'rtasidagi savdo yo'llarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, bu uning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Buxoro shahrining markaziy o'rni, uning madaniyati va diniy merosi bilan birgalikda, zamonning eng yirik savdo va madaniyat markazlaridan biriga aylanishiga sabab bo'ldi. Buxoro xonligining strategik ahamiyati nafaqat savdo yo'llarini nazorat qilishda, balki mintaqadagi siyosiy kuchlar bilan aloqalar o'rnatishda ham namoyon bo'ldi. Bu davrda Buxoro xonligi turli davlatlar va xalqlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, o'zining ta'sirini kengaytirdi. Shuningdek, Buxoro xonligi ichki siyosatida ham o'zining geostrategik joylashuvi asosida turli ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etishga harakat qildi.

Buxoro xonligi (XVI-XVIII asrlar) O'rta Osiyoning muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo'lib, uning geografik joylashuvi ushbu hududning tarixiy rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Buxoro, o'zining strategik ahamiyati bilan, ko'plab savdo yo'llarining kesishgan joyida joylashgan bo'lib, bu esa uning iqtisodiy qudratini oshirgan.

Buxoro xonligi Sharqda Qashqar bilan chegaradosh bo'lган, g'arbiy chekkasi Orol va Kaspiy dengizi sohillarigacha borib tutashgan. Xonlikning shimoldagi chegaralari Turkiston va Sayramgacha yetib, Janubda Xurosonning Sharqiy qismini o'z ichiga olgan. Bu hududning geografik joylashuvi savdo yo'llarining kesishgan nuqtasida joylashganligi sababli, Buxoroning iqtisodiy va madaniy hayoti rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, Buxoro shahrining o'zida joylashishi ham muhim ahamiyatga ega bo'lган. U qadimdan savdo va madaniyat markazi sifatida tanilgan. Buxoro shahridan o'tuvchi Buyuk Ipak yo'li orqali Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo aloqalari rivojlandi (Akhmedov, 2010). Xonlikning Hindiston, Turkiya, Rossiya bilan savdo va diplomatik munosabatlari rivojlangan. Forsdag'i Safaviylar va Hindistondagi Boburiylar imperiyasi kabi qudratli imperiyalar o'rtasida bufer davlat bo'lib xizmat qilgan. Xonlik o'z muxtoriyatini saqlab qolish va strategik mavqeidan foydalanish uchun ko'pincha bu imperiyalar bilan diplomatik aloqalar olib borgan. Tarixiy manbalardan

ma'lum bo'lishicha, 1572-78-yillari Hindistonda Buxoro xonining elchilari, Buxoroda esa Hindiston podshohi Akbarni elchilari bo'lgan. Hindistondagi Boburiylar sultanati bilan Buxoro xonligi o'rtaсидаги о'заро муносабатлarning о'rnatilishi Bobur va Ko'chkunchixonlar nomi bilan bog'liq.

Ko'chkunchixon hukmronligi davrida Buxoro xonligi Boburiylar davlatini tan oldi hamda u bilan savdo va elchilik munosabatlari o'rnatdi. Ko'chkunchixonning elchisi xon tomonidan Boburga Movarounnahrning mashhur mayizlaridan, subxoni o'riklaridan va boshqa noyob ne'matlaridan yetti tuyaga yuklangan sovg'a-salomlari qatorida tortiq qilingan 200 ta yaxshi olib kelganligi manbalarda qayd etilgan. O'z navbatida, Bobur ham Buxoro xonligiga elchilar yuborgan. Bu ikki davlat o'rtaсидаги savdo va elchilik munosabatlari Boburning o'g'li Humoyun hukmronligi yillarda ham davom etgan. Bunday munosabatlar keyingi shayboniy va boburiy hukmdorlar davrida yanada kengaygan. Chunonchi, Buxoro xoni Abdullaxon II safaviylargacha qarshi kurashda boburiylar bilan birga harakat qilishga intilgan. Shu sababdan 1572-yili Abdullaxon II Akbarshoh huzuriga o'zining elchilarini yubordi. Buxorolik elchilar o'z hukmdorining sovg'a-salomlari va maktubini olib borganlar. Bir qancha vaqtadan so'ng yana javob sovg'a-salomlari va maktubini olib, o'z vatanlariga qaytganlar.

Abdullaxon o'z maktubida ikki davlat o'rtaсидада do'stlik munosabatlarini mustahkamlash istagini bayon qilgan edi. Bundan ko'zlangan maqsad boshqa davlatlar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan hujum xavfiga qarshi ittifoq tuzish edi. 1577-yili Abdullaxon II Hindistonga ikkinchi marta elchi yuborgan. Bu elchi almashishdan siyosiy maqsad ko'zlangan edi. Abdullaxon II to'g'ridan to'g'ri Eronni o'zaro taqsimlab olishni taklif qildi. Lekin Akbarshoh bunga rozi bo'lmadi. Chunki Akbarshoh fuqarolari turli din va diniy yo'nalishlarga e'tiqod qiluvchi davlatlarning bir-biriga toqat qilib yashashlari tarafidori, diniy bag'rikenglikni davlat siyosati darajasiga ko'targan hukmdor edi. Qolaversa, u Eron bilan yaxshi munosabatda bo'lgan. Akbarshoh tez orada Hindistonning shimolidagi Sind va Kashmirni egallaydi. Buxoro xonligi bu voqeani Hindistonning shayboniylar davlatining janubiy chegarasiga yaqinlashuvi deb hisoblaganlar. Chunki Movarounnahrda ham, Hindistonda ham Akbarshohni o'z bobosi yurti — Movarounnahrni egallab olishga undovchi kuchlar bor edi. Shunday sharoitda, Abdullaxon II 1584-yilda Badaxshonni egallaydi. Bu voqeadan so'ng Abdullaxon II Akbarshoh huzuriga 1585-yilda uchinchi marta elchi yubordi. Elchi Akbarshohga topshirgan maktubda Abdullaxon Badaxshonning egallab olinishi sabablarini tushuntirishga harakat qilgan edi. Abdullaxonning fikricha, musulmonlarning muqaddas shaharlari bo'lgan Makka va Madinaga boradigan yo'l Badaxshon orqali o'tardi. Bu yo'lni g'ayridinlardan tozalash maqsadida Badaxshonni egallaganini bildiradi. 1586-yilda Akbarshoh o'z elchisini Abdullaxonning elchilariga qo'shib Buxoroga yuboradi. Akbarshoh o'z maktubida Abdullaxonga Turkiya Eronning bir qismini bosib

olganligidan tashvishlanayotganligini, Buxoro va Hindiston birqalikda Eronga yordam ko'rsatishi zarurligini ma'lum qilgan edi.

Biroq Eron shayboniyalar davlatini o'zining asosiy raqiblaridan biri deb hisoblab kelayotgani uchun Abdullaxon II bunday ittifoqqa rozi bo'lmaydi. Bu paytda Eron shohi Abbas I Eronni birlashtirishga, mustahkamlab olishga erishgan edi. Ana shunday sharoitda Badaxshonda Abdullaxonga qarshi isyon ko'tarildi. Buxoroda bu isyonda Akbarshohning qo'li bor degan gumon paydo bo'ladi. Badaxshon hokimi, Abdullaxon II ning o'g'li Abdulmo'min Akbarshohga maktub yo'llab, undan boshpana berilgan badaxshonlik isyonchilarini Buxoroga qaytarib yuborishini talab qildi. Natijada ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarga sovuqchilik tushadi. Biroq Abdullaxon II Akbarshoh huzuriga o'z elchisini yuborib, o'g'lining xatti-harakati uchun undan uzr so'ragan.

Manbalarda ta'kidlanishicha, Muhammad Shayboniyxon bilan Turkiya sultonı Boyazid II o'rtasida Eron safaviylariga qarshi kurash to'g'risida shartnoma tuzilgan. Bu shartnoma Shayboniyxondan keyin ham davom etdi. 1515-yilda turk sultonı Sulton Salim huzuriga shayboniyalar elchisi bordi. O'z navbatida, Sulton Salimning elchisi o'sha yili Buxoro xonligiga sultonning maktubini olib keladi. Sulton o'z maktubida Ubaydullaxonni Eronda qarshi kurashga chaqiradi. Bu chaqiriq ostida, aslida, Turkiyaning manfaati yotar edi. Turkiya Buxoro xonligining ichki ishlariga ham aralashgan. Chunonchi, shayboniyzodalarining Movarounnahr taxti uchun kurashida Turkiya Toshkent hokimi Baroqxon Navro'z Ahmadxon ibn Suyunchxo'jaxonga yordam uchun harbiy kuch ham jo'natgan. Baroqxonning Toshkentdagi qarorgohida 300 nafar turk askari doimiy xizmatda bo'lган, qurol-aslahan bilan ham ta'minlab turilgan. Turkiya safaviylarga qarshi kurashda shayboniyalar kuchidan foydalanibgina qolmay, Buxoro xonligida o'z siyosiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida ham bu ichki kurashlarda faol qatnashdi.

Buxoro va Eron manfaatlari to'qnashgan asosiy hudud Xuroson edi. Buning sababi Xurosonning ham harbiy-siyosiy, ham savdo-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligida edi. Bundan tashqari, Xuroson Buxoro xonligi, Eron va Hindiston yo'nalishida o'ziga xos darvoza vazifasini ham o'tar edi. Xurosonni nazorat qilish masalasida shayboniyalar va safaviylar o'rtasida keskin kurash ketgan. Bu masalada Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II hukmronligi davrida shayboniyalar ustunlik qildilar. Abdullaxon II Xurosonning Marv, Nishapur va Mashhad kabi yirik shaharlarini egallagan.

Buxoro xonligining Rossiya bilan munosabatlari XVI-asrning ikkinchi yarmidan rivojlana bordi. Abdullaxon II Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshilashga harakat qilar ekan, bu orqali o'z davlatining siyosiy ahvolni mustahkamlashga ham erishmoqchi edi. Chunki podsho Ivan Grozniy (1533–1584) davrida Rossianing mavqeyi kuchaya bordi. Ivan Grozniy davrida Qozon xonligi (1552), Hojitarxon xonligi (1556), Volga bo'yłari va G'arbiy Sibir hududlari Rossiya tomonidan bosib olingan edi. Bu hol Rossiyaga savdo yo'llarini nazorat qilish imkonini berdi. Volga

atrofidagi viloyatlarda savdo-sotiq ishlarini olib borish Buxoro xonligidan kelgan savdogarlar uchun ancha qulay edi. Ularga eng yaqin qo'shni mamlakat Rossiya bo'lib qolgandi. Bu hol ko'p jihatdan Qozon tatarlari hamda boshqirdlarga din va til yaqinligi bilan izohlanar edi. Shuning uchun ham Abdullaxon II tomonidan 1557–1558-yillarda Moskvaga elchilar yuborilgan. Elchilar Astraxan orqali Moskvaga borib, Ivan Grozniy huzurida bo'lmadilar. Ular o'z xonlari nomidan savdogarlarning Volga bo'ylab erkin o'tishlariga ijozat so'raydilar. Elchilar Moskvadan juda ko'p o'q-dori, ov qushlari va matolar bilan qaytgan.

Ayni paytda, Rossiya ham Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishdan manfaatdor edi. Bu manfaatdorlik, avvalo, Buxoroning Rossiya tovarlarini sotish uchun qulay bozorligida edi. Ikkinchidan esa Rossiya Buxoro xonligi orqali Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'lardi. Bunda, birinchi navbatda, Hindistonga chiqish maqsadi hisobga olingan edi. 1555-yili Moskvada tashkil etilgan "Moskva savdo kompaniyasi" vakili Antoniy Jenkinson boshliq elchilar rus podshosining guvohnomasi bilan 1558-yili Buxoroga yuboriladi. Elchi Antoniy Jenkinson Buxoro xoni Abdullaxon II tomonidan qabul qilindi. Elchi xonlikning xalqaro va ichki savdo imkoniyatlarini "Rossiyadagi Moskva shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558-yilgi sayohat" nomli esdaliklarida bayon etadi. Antoniy Jenkinson elchiligi natijasida Rossiya va Buxoro xonligi o'rtaida yaxshi savdo va diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi.

Buxoro xonligi iqtisodiy jihatdan rivojlangan hudud bo'lib, u qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo sohalarida muvaffaqiyatlarga erishdi. Buxoroning paxta, ipak va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro bozorda ham talabga ega edi. Bu iqtisodiy faoliyat Buxoro xonligini mustahkamlashda va uning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynadi (Beruni, A. 1996).

Buxoro xonligi o'zining qo'shni davlatlari bilan murakkab siyosiy munosabatlarga ega bo'lgan. U O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston va Afg'oniston kabi mamlakatlari bilan aloqalarni rivojlantirdi. Buxoro xonligi o'zining harbiy qudrati va diplomatik mahorati orqali qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni boshqarishda muvaffaqiyatga erishdi. Bu jarayonda Buxoroning siyosiy liderlari va diplomatik strategiyalari muhim ahamiyatga ega bo'lgan (Qodirov, M. 2005).

Buxoro xonligi madaniy jihatdan ham o'ziga xos ahamiyatga ega edi. Bu yerda ilm-fan va san'at rivojlandi, ko'plab olimlar va shoirlar yashab ijod qildilar. Buxoroning madaniy merosi, jumladan, me'morchilik yodgorliklari va ilmiy tadqiqotlar mintaqaviy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Bu madaniy aloqalar Buxoroning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy jihatdan ham mustahkmlanishiga yordam berdi (Rahmonov, S. 2010).

Buxoro xonligi strategik jihatdan muhim bo‘lgan sabablardan biri uning ko‘p millatli va ko‘p dinli aholisidir. Bu hududda turli etnik guruqlar va madaniyatlar birlashgan bo‘lib, bu esa savdo va diplomatik aloqalarni rivojlantirishda yordam bergan (Ismoilov, 2015).

Buxoro xonligi, shuningdek, harbiy strategiya nuqtai nazaridan ham muhim edi. U O‘rta Osiyo hududida kuchli davlatlar bilan chegaradosh bo‘lib, harbiy kuchini saqlab qolish zarurati tug‘ilgan (Sultonov, 2018). Buxoro xonligi o‘zining harbiy qudratini saqlab qolish uchun ko‘plab jangovar harakatlar olib borgan. Xonlikning joylashuvi unga asosiy harbiy yo‘llarni nazorat qilish va bosqinlardan himoyalanish imkonini bergan. Atrofdagi cho‘l va tog‘lar potensial bosqinchilarga qarshi tabiiy to‘sinq vazifasini o‘tagan. Bu davrda Buxoro xonligiga shimoldan ko‘chmanchi qabilalar, janubdan esa kengayib borayotgan imperiyalar tahdid solib turgan. Uning strategik pozitsiyasi qo‘sishlarni samarali safarbar qilish va o‘z hududini himoya qilish imkonini berdi.

Buxoro xonligi nafaqat savdo-sotiq, balki madaniyatlar markazi ham edi. Turli xalqlarning yaqinlashuvi muhim madaniy almashinuvlarga olib keldi. Buxoroning boy madaniy merosiga turli millatga mansub olimlar, shoirlar, hunarmandlar o‘z hissalarini qo‘sghanlar. Bu madaniy ahamiyat uning ilm-fan va din markazi sifatidagi mavqeini yanada oshirib, butun islom dunyosidan olimlarni jalb qildi.

Xulosa va takliflar

XVI-XVIII asrlarda Buxoro xonligining geografik joylashuvi uning strategik ahamiyatini belgilab berdi. Uning muhim savdo yo‘llari bo‘ylab joylashuvi iqtisodiy farovonlikni ta’minladi, siyosiy va harbiy ahamiyati esa unga murakkab mintaqaviy vaziyatdan chiqish imkonini berdi. Geografiya, savdo, siyosat va madaniyatning o‘zaro ta’siri Buxoro xonligini bu davrda Markaziy Osiyoning markaziy o‘yinchisiga aylantirdi. Ushbu tarixiy vaziyatni tushunish Markaziy Osiyo davlatlarining rivojlanishi va ularning jahon tarixidagi o‘rni haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. XVI-XVIII asrlarda Buxoro xonligining geografik joylashuvi va uning strategik ahamiyati O‘rta Osiyo tarixida muhim rol o‘ynadi. Buxoro nafaqat savdo yo‘llarining kesishgan joyi bo‘lib qolmasdan, balki madaniy va siyosiy markaz sifatida ham tanilgan. Uning geografik joylashuvi va strategik ahamiyati bugungi kunda ham tarixchilar va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda.

Buxoro xonligi tarixini o‘rganish va uning strategik ahamiyatini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun quyidagi takliflar va tavsiyalarni keltirish mumkin:

Buxoro xonligi davriga oid arxiv materiallarini, xususan, diplomatik hujjatlar, savdo kelishuvlari va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga doir ma’lumotlarni to‘plash.

O‘rta Osiyo tarixiga oid asarlarni, jumladan, tarixiy xronikalarni va sayohatnomalarni o‘rganish va ularni tahlil qilish.

Buxoro xonligining savdo yo'llaridagi o'rnini, savdo tovarlarini va ularning ta'sirini o'rghanish.

Buxoro xonligi davrida madaniyatlararo aloqalarni, jumladan, san'at, Buxoro xonligining boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalarini o'rghanish, bu jarayonda kimlar va qanday strategiyalar qo'llanganligini tahlil qilish.

Buxoro xonligining ichki siyosati, ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy muammolarni hal etish usullarini o'rghanish.

O'rta Osiyo tarixi bo'yicha maxsus kurslar ochish va talabalarni Buxoro xonligi tarixi bilan tanishtirish.

Buxoro xonligi tarixi va madaniyati bo'yicha ilmiy konferensiylar tashkil etish, tadqiqotchilar va talabalarni jalb qilish.

Buxorodagi tarixiy obidalarni saqlash va ularni turizm uchun ochiq qilish, bu orqali mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish.

Madaniy merosni saqlashda mahalliy aholini jalb qilish, ularning bilim va tajribalaridan foydalanish.

Buxoro xonligi tarixi bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturlarini amalga oshirish, boshqa mamlakatlardagi olimlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Buxoro madaniyatini dunyoga tanitish maqsadida xalqaro madaniyat almashinushi dasturlarini tashkil etish.

Ushbu takliflar va tavsiyalar Buxoro xonligining tarixiy ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi hamda uning me'rosini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmedov, A. "Buxoro: Tarix va madaniyat". Tashkent: Fan. 2010.
2. Ismoilov, M. "O'rta Osiyo tarixida Buxoro xonligining o'mni". Buxoro: Buxoro universiteti nashri. 2015.
3. Sultonov, R. "O'rta Osiyo harbiy tarixi: Buxoro xonligining jangovar faoliyati". Samarkand: SamDU nashri. 2018.
4. Beruni, A. "O'rta Osiyo tarixi". Toshkent: Fan. 1996.
5. Qodirov, M. "Buxoro xonligi: Tarix va madaniyat". Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti. 2005.
6. Rahmonov, S. "Markaziy Osiyo savdosi: Tarixiy tahlil". Toshkent: Sharq. 2010.
7. Bartold V. V. "Turkestan before the Mongol invasion". Harvard University Press, 2008.
8. Bosworth, C. E., van Donzel, E. History of Tabari: Volume 22: "History of Prophets and Kings". State University of New York Press, 2007.
9. Golden, P. B. "Central Asia in World History". Oxford University Press. 1992.
10. Xunshe, A. "Bukhara: Historical Review". Journal of Central Asian Studies, 12 (1), 2015. 45-67-p.
11. Kolesnikov A., Shakirov R. "Bukhara's role in Silk Road trade". Central Asian Affairs, 6 (2), 2019. 123-145-p.